

# JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 2, 2026 vol. 3

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI**

Tashkent state  
transport university



**JOURNAL OF TRANSPORT**

RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

**E-ISSN: 2181-2438**

**ISSN: 3060-5164**

**VOLUME 3, ISSUE 2**

**JUNE, 2026**



[jot.tstu.uz](http://jot.tstu.uz)

# TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

## JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 3, ISSUE 2 JUNE, 2026

**EDITOR-IN-CHIEF**

**SAID S. SHAUMAROV**

*Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University*

**Deputy Chief Editor**

**Miraziz M. Talipov**

*Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University*

---

The “**Journal of Transport**” established by Tashkent State Transport University (TSTU), is a prestigious scientific-technical and innovation-focused publication aimed at disseminating cutting-edge research and applied studies in the field of transport and related disciplines. Located at Temiryo‘lchilar Street, 1, office 465, Tashkent, Uzbekistan (100167), the journal operates as a dynamic platform for both national and international academic and professional communities. Submissions and inquiries can be directed to the editorial office via email at [jot@tstu.uz](mailto:jot@tstu.uz).

The Journal of Transport showcases groundbreaking scientific and applied research conducted by transport-oriented universities, higher educational institutions, research centers, and institutes both within the Republic of Uzbekistan and globally. Recognized for its academic rigor, the journal is included in the prestigious list of scientific publications endorsed by the decree of the Presidium of the Higher Attestation Commission No. 353/3 dated April 6, 2024. This inclusion signifies its role as a vital repository for publishing primary scientific findings from doctoral dissertations, including Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) candidates in the technical and economic sciences.

Published quarterly, the journal provides a broad spectrum of high-quality research articles across diverse areas, including but not limited to:

- Economics of Transport
- Transport Process Organization and Logistics
- Rolling Stock and Train Traction
- Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields, including Technology
- Technosphere Safety
- Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications
- Technological Machinery and Equipment
- Geodesy and Geoinformatics
- Automotive Service
- Air Traffic Control and Aircraft Maintenance
- Traffic Organization
- Railway and Road Operations

The journal benefits from its official recognition under Certificate No. 1150 issued by the Information and Mass Communications Agency, functioning under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. With its E-ISSN 2181-2438, ISSN 3060-5164 the publication upholds international standards of quality and accessibility.

Articles are published in Uzbek, Russian, and English, ensuring a wide-reaching audience and fostering cross-cultural academic exchange. As a beacon of academic excellence, the "Journal of Transport" continues to serve as a vital conduit for knowledge dissemination, collaboration, and innovation in the transport sector and related fields.

## The role and impact of ESG factors in the development of the banking and financial system

M.B. Sul-tonboeva<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Turin Polytechnic University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan

**Abstract:** This article examines the growing importance of integrating ESG (Environmental, Social, and Governance) principles into the financial sector in the context of global climate change and population growth. It analyzes the outcomes of ongoing financial sector reforms in Uzbekistan, including banking system modernization, digital transformation, and improvements in the regulatory framework. At the same time, key systemic challenges are identified, such as the high level of state participation in the banking sector, insufficient development of risk management systems, and low financial intermediation. The study substantiates the role of ESG as a comprehensive approach to evaluating financial sector performance and provides practical recommendations for its effective implementation.

**Keywords:** bank, finance, ESG, efficiency, evaluation, banking sector, environmental, governance, economy

## Bank-moliya tizimini rivojlantirishda ESG omillarining roli va ta'siri

Sultonboyeva M.B.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Toshkent Turin Politehnika Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada global iqlim o'zgarishlari va aholi sonining ortib borishi sharoitida moliya sektorida ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillarini joriy etishning dolzarbligi tahlil qilingan. O'zbekiston moliya sektorida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan bank tizimini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiya jarayonlari va huquqiy bazaning takomillashuvi natijalari yoritilgan. Shu bilan birga, sektor rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar — davlat ulushining yuqoriligi, risklarni boshqarish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va moliyaviy vositachilik darajasining pastligi tahlil etilgan. Tadqiqotda ESG yondashuvi moliya sektorining samaradorligini kompleks baholash vositasi sifatida asoslab berilgan hamda ushbu tamoyillarni joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bank, moliya, ESG, samaradorlik, baholash, bank sektori, ekologik, boshqaruv, iqtisodiyot

### 1. Kirish

Hozirgi kunda dunyo aholisining ko'payishi va global iqlim o'zgarishlari sharoitida korporativ boshqaruvga ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) mezonlarini integratsiya qilish hamda "yashil" investitsiyalarni joriy etish dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Shu sababli, moliyaviy sektorni tizimli isloh qilish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, ilg'or bank biznesini yuritish va moliyaviy sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, moliya sektorining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay huquqiy muhit yaratishga qaratilgan bir qator asosiy qonun hujjatlari yangilandi: "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Valyutani tartibga solish to'g'risida" hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonunlarning yangi tahrirda qabul qilinishi bank tizimining institutsional asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi [Oshibka! **Источник ссылки не найден.**]. Ushbu o'zgarishlar moliya sektorida shaffoflikni oshirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ilg'or bank xizmatlarini joriy etish uchun zamin yaratdi.

Lekin shunga qaramay bank-moliya sektorida bir qancha tizimli muammolar mavjud. Markaziy bank tomonidan

o'tkazilgan tadqiqotlarni shuni ko'tsatmoqdaki, geosiyosiy xatarlar eng asosiy xatar sifatida belgilangan. Shuningdek, valyuta kursi o'zgaruvchanligi, aholi orasida qarz yuki darajasining ortishi, yuqori inflyatsiya va kiber hujumlar bilan bog'liq xavflar moliya tizimi uchun asosiy xatarlar deya baholanmoqda. Shu bilan birga, respondentlar tomonidan kredit xatari, iqtisodiy pasayish, yirik qarz oluvchilarning defolt xavfi, likvidlik muammolari hamda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflar O'zbekiston moliya tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatarlar qatorida sanab o'tilgan [Oshibka! **Источник ссылки не найден.**]. Bu esa moliya sektorini yanada chuqurroq isloh qilish va yangi yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur yo'nalishda muhim hujjatlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda qabul qilingan "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmonida bank tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalari va moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish zarurligi alohida ta'kidlangan [Oshibka! **Источник ссылки не найден.**]. Ushbu amalga oshirilayotgan ishlar moliya sektorining



raqamli transformatsiyasini jadallashtirish bilan birga, uning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi doirasida moliya sektorining roli yanada ortib bormoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyot hajmini oshirish, inflyatsiya darajasini maqbul darajada ushlab turish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Xususan, 2026-yilda inflyatsiya darajasini 6–6,5 foiz atrofida ushlab turish, pul-kredit siyosatini qat'iy yuritish va real foiz stavkalarini ijobiy darajada shakllantirish kabi chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, bu moliya sektorining barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Shu bilan birga, strategiyada "yashil iqtisodiyot"ga o'tish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish, Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami generatsiyadagi (iste'moldagi) ulushini 54 foizga yetkazish, Issiqxona gazlarini yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish, Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVtga yetkazish, Issiqlik tarmoqlaridagi yo'qotishlarni 20 foizga tushirish [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], ekologik barqarorlikni ta'minlash va ushbu jarayonlarni muntazam monitoring qilish vazifalari belgilangan. Bu esa moliya sektorida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bank tizimini rivojlantirish bo'yicha belgilangan maqsadlar ham sektorning kengayib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, banklarni xususiyashtirish va davlat ixtiyorida 4 ta bankni saqlab qolish, bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 720 trillion so'mga yetkazish, tijorat banklari depozitlari qoldig'ini 560 trillion so'mga yetkazish, islomiy moliyaning huquqiy asoslarini yaratgan holda 3 ta tijorat bankida islomiy moliya xizmatini yo'lga qo'yish [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] singari vazifalar sektorni nafaqat hajm jihatidan, balki sifat jihatidan ham rivojlanishiga turtki beradi.

Yuqoridagi holatlar moliya sektorida samaradorlikni baholashga nisbatan yangi yondashuvlarni talab etadi. An'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar ushbu murakkab jarayonlarni to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli, zamonaviy ilmiy yondashuvlar, xususan ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini moliya sektoriga integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. ESG yondashuvi moliyaviy natijalar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini ham hisobga olish orqali sektor samaradorligini yanada chuqurroq baholash imkonini beradi.

## 2. Tadqiqot metodologiyasi

2025 yil boshida umumiy kredit tashkilotlari soni 229 tani tashkil etgan bo'lsa yil yakunida ushbu ko'rsatkich 260 tani tashkil etdi. Shundan 36 tasi tijorat banklari bo'lsa, 224 tasi nobank tashkilotlar (mikromoliya tashkilotlari 132 ta, lombardlar 91 ta va bitta Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari). Shuningdek O'zbekiston moliya sektorida sezilarli ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda. Xususan, amalga oshirilgan islohotlar natijasida bank kapitali 1,8 barobarga oshgan bo'lsa, kreditlash hajmi deyarli 2 barobarga ko'paygan. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobarga oshgani moliya

xizmatlarining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Bank sektorining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasi ham sezilarli darajada kuchaygan. Xususan, ayrim tijorat banklari tomonidan xalqaro kapital bozorlariga chiqish orqali 1 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilingani ushbu sektorning investitsion jozibadorligi ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, yangi xususiy banklarning tashkil etilishi raqobat muhitining shakllanayotganini ko'rsatadi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili ham moliya sektorining o'sishini tasdiqlaydi. Jumladan, boshqa investitsiyalar hajmi 50 trln so'mdan 63 trln so'mgacha oshgan bo'lib, bu moliyaviy faollikning ortib borayotganini bildiradi. Shuningdek, depozit tashkilotlari ko'rsatkichlarining o'sishi bank tizimining likvidlik darajasi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, bank xizmatlari bozori iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Masofaviy xizmatlar, mobil banking va boshqa raqamli mahsulotlarning keng joriy etilishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Umuman olganda, yuqoridagi ko'rsatkichlar O'zbekiston moliya sektorida institutsional va funksional rivojlanish mavjudligini ko'rsatadi. Biroq ushbu o'sish bilan bir qatorda sektor samaradorligini chuqurroq baholash zarurati ham yuzaga kelmoqda.

Moliyaviy sektorning yuqori sur'atlarda rivojlanayotganiga qaramasdan, uning samaradorligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Eng avvalo, bank tizimida davlat ishtirokining yuqori darajada ekanligi raqobat muhitining to'liq shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat ulushining yuqoriligi ayrim hollarda resurslarning samarali taqsimlanmasligiga hamda bozor mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligiga olib keladi.

**Muhokama.** Shuningdek, ayrim tijorat banklarida korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Bu esa kredit portfelining sifatiga, likvidlikni boshqarishga va umumiy moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, risklarni baholash va monitoring qilish mexanizmlarining zamonaviy talablarga to'liq mos kelmasligi bank faoliyatining samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik darajasining nisbatan pastligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Moliyaviy resurslarning real sektor ehtiyojlariga to'liq yo'naltirilmasligi iqtisodiy o'sish sur'atlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu holat banklar va boshqa moliyaviy institutlarning iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, axborot texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar ham dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, ayrim moliyaviy institutlarda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi xizmatlar sifatiga ta'sir qilishi mumkin.

Shu bilan birga, moliya sektorida shaffoflik va axborot ochiqligi darajasini oshirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ESG ko'rsatkichlari bo'yicha yagona standartlar va hisobot tizimining mavjud emasligi sektor



samaradorligini kompleks baholash imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.

Natijada, mavjud muammolar moliya sektorida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilmoqda va yangi, zamonaviy baholash yondashuvlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Yuqorida qayd etilgan muammolar moliya sektorida samaradorlikni baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarning yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu sababli, zamonaviy yondashuv sifatida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. ESG yondashuvi moliyaviy natijalar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini ham hisobga olish orqali sektor faoliyatini yanada kompleks baholash imkonini beradi.

Ekologik komponent (E) nuqtai nazaridan qaraganda, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha belgilangan strategik maqsadlar moliya sektoriga yangi vazifalarni yuklamoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik loyihalarni moliyalashtirish va "yashil kreditlar" ulushini oshirish banklarning faoliyat yo'nalishida muhim o'rin egallamoqda. Bu esa moliya institutlaridan ekologik risklarni hisobga olgan holda qaror qabul qilishni talab etadi.

Ijtimoiy komponent (S) esa moliyaviy xizmatlarning ommaviylikini oshirish va aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish bilan bevosita bog'liq. So'nggi yillarda raqamli bank xizmatlarining kengayishi, masofaviy xizmatlar va innovatsion moliyaviy mahsulotlarning joriy etilishi aholining moliyaviy tizimga jalb qilinishini oshirmoqda. Bu esa moliya sektorining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham kuchaytiradi.

Boshqaruv komponenti (G) esa moliya sektorida eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bank tizimida shaffoflikni oshirish, hisobdorlikni kuchaytirish va risklarni samarali boshqarish uchun asos yaratdi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish moliya institutlarining barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ESG tamoyillarini moliya sektoriga integratsiya qilish mavjud muammolarni bartaraf etishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Xususan, ESG yondashuvi orqali resurslarni yanada samarali taqsimlash, risklarni chuqurroq baholash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

### 3. Xulosa

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida moliya sektorini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida ushbu sohada sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, bank kapitalining oshishi, kreditlash hajmining kengayishi, raqamli xizmatlarning jadal rivojlanishi hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyaning kuchayishi sektorning barqaror rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Biroq, erishilgan natijalarga qaramasdan, moliya sektorida qator tizimli muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, davlat ishtirokining yuqoriligi, korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish

tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek moliyaviy vositachilik darajasining pastligi sektor samaradorligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, moliya sektorida samaradorlikni baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Xususan, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini integratsiya qilish sektor faoliyatini yanada kompleks baholash imkonini beradi. ESG yondashuvi orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarni kengaytirish hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga asosan, moliya sektorining samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, banklar faoliyatida ESG hisobot tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

ikkinchidan, yashil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish va ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

uchinchidan, korporativ boshqaruv standartlarini xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirish;

to'rtinchidan, moliyaviy xizmatlarning ommaviylikini oshirish orqali aholi va biznes subyektlarining moliyaviy tizimga jalb qilinishini kengaytirish.

Umuman olganda, ESG tamoyillarini moliya sektoriga integratsiya qilish nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etishga, balki uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, kelgusida moliya sektorini rivojlantirishda ESG yondashuvlari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

## Foydalangan adabiyotlar / References

[1] O'zbekiston Respublikasining 05.11.2019 yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RQ-580-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4581969>

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 yildagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida" PF-22-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8050787>

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 yildagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son farmoni.

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4811025>

[5] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.04.2025 yildagi "2025 — 2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 210-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7469803#-7470510>

[6] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2020 yildagi "2020 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash



to'g'risidagi" 506-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4966572>


[7] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni 2025 yil. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/477/1e2ppzmuzmj60935cq0tci4v0cpwj8vy/2025-yilning-I-yarim-yilligi-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf>

[8] Bank samaradorligini baholash indikatorlari ularning ahamiyati, turlari va qo'llanilishi. S.Bekmuradova

## Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Sultonboyeva  
Munira  
Baxodirovna  
/ Munira  
Sultoboeva

Toshkentdagi Turin Politexnika  
Universiteti, "Menejment, iqtisod  
va gumanitar fanlar" kafedrasida,  
dotsenti, DSc  
E-mail: [m.sultonboeva@turin.uz](mailto:m.sultonboeva@turin.uz)  
Tel.: +998712461018



<b>I. Maturazov, A. Turdimurodov, S. Otaboev</b> <i>Analysis of remote real-time monitoring of the technical condition of aircraft engines based on IoT systems</i> .....	5
<b>I. Maturazov, A. Turdimurodov, S. Otaboev</b> <i>Prediction of technical failures in aircraft based on artificial intelligence</i> .....	10
<b>A. Kiyomov</b> <i>Problems of formation of basic professional competence among students of technical higher educational institutions</i> .....	15
<b>M. Rasulmuhamedov, Z. Mirzaeva, A. Matkarimov, M. Mehmonov</b> <i>Numerical calculation of the bending of an elastic beam using the finite difference method</i> .....	18
<b>E. Shchipacheva, R. Pirmatov, Li Jia Jun, R. Khasanov, S. Sadikov, O. Sodikov</b> <i>An innovative surface coating for transportation infrastructure</i> ....	22
<b>G. Isakova, I. Sadikov, R. Kadirbergenov</b> <i>The effect of adhesion properties on asphalt concrete pavement</i> ....	26
<b>M. Masharipov, E. Asatov, R. Bozorov</b> <i>Analysis of international experience in organizing train operations on complex mountainous railway sections</i> .....	30
<b>M. Sultonboeva</b> <i>The Role and impact of ESG factors in the development of the banking and financial system</i> .....	34
<b>O. Turdiev, M. Murtozaeva</b> <i>Development of an information system for rapid communication with emergency services</i> .....	38
<b>M. Murtozaeva</b> <i>Development of an information system for real-time communication with emergency services: Mathematical modeling and practical results</i> .....	42
<b>A. Gulomova</b> <i>Evaluation of the energy efficiency of passive cooling methods for attic spaces in hot climate regions</i> .....	47